

**YURIDIK TILSHUNOSLIKDA PARTONIMIYA**

**Jahongir Xo‘janiyozov,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yuridik tilshunoslikda qo‘llaniladigan terminlarning partonimiyasi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu mavzu bo‘yicha tilshunos olimlarning fikrlari keltirib o‘tiladi. Shuningdek, misollar orqali atroflicha tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Yuridik termin, sistema, struktura, butunlik, qism, partonimiya, leksema.

**Аннотация:** В данной статье говорится о партонимии терминов, используемых в юридической лингвистике. Приводятся мнения лингвистов на эту тему. Это также подробно анализируется на примерах.

**Ключевые слова:** Юридический термин, система, структура, целое, часть, партонимия, лексема.

**Annotation:** This article talks about the paronymy of terms used in legal linguistics. The opinions of linguists on this topic are cited. It is also analyzed in detail through examples.

**Key words:** Legal term, system, structure, whole, part, paronymy, lexeme.

Borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko‘z oldimizda alohida butunlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ma‘lum bir qismlardan, bo‘laklardan, komponentlardan tashkil topadi. Bu qismlar, bo‘laklar, komponentlar bir-biri bilan bog‘lanib, yagona bir yaxlitlikni, sistemani tashkil qiladi. Prof. R.Rasulov o‘zining “Umumiy tilshunoslik” kitobida nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab muammolaridan biri bo‘lgan sistema va struktura haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Sistema-butunlik, struktura-qismlilik. Sistema-umumiylik, struktura-xususiylik. Sistema elementlar aloqasining, bog‘liqligining tugallangan nuqtasi, yaxlitligi. Struktura-elementlar aloqasining boshlang‘ich nuqtasi, ularning dastlabki qator ichki bog‘lanishi, munosabati”<sup>1</sup>.

**Butun** – o‘zaro dialektik aloqada bo‘lgan qismlar, bo‘laklar, komponentlar, elementlarning uzviy birligidan iborat bo‘lgan yaxlit narsa, hodisa, jarayon.

**Qism** – butunni tashkil qilgan, uning tarkibiga kirgan bo‘lak, element, komponentdir.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Rasulov R. Umumiy tilshunoslik – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.-B.194.

<sup>2</sup> Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004. – B.141.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Partonimiya leksemalarning ma’no guruhlarida butun-bo’lak munosabatlarining ifodalanishga aytiladi. Partonimiya hamma soha terminlarida uchraydi. Masalan, avtomobil (butun) - kuzov (bo’lak) - motor (bo’lak) - g’ildirak (bo’lak) va b.lar. Yana: uy (butun) - xona (bo’lak) - ayvon (bo’lak) - koridor (bo’lak). Bular da avtomobil (birinchi qatorda) va uy (ikkinchi qatorda) leksemalari bosh so’zlardir. Ayni paytda kuzov (butun) — eshik (bo’lak) — yukdon (bo’lak) — oyna (bo’lak) — bamfer (bo’lak) qatorida kuzov leksemasi; xona (butun) — oyna (bo’lak) — eshik (bo’lak) qatorida esa xona leksemasi bosh so’z bo’lsa, fonetika (butun) – tovush (bo’lak) — bo’g’in (bo’lak) — urg’u (bo’lak) — ohang (bo’lak) so’zlari tilshunoslikda partonimiya sanaladi.

Yuridik tilshunoslikda ham partonimik munosabatlar uchraydi. Buni ko’proq umumiste’mol leksika tarkibida kuzatish mumkin. Ma’lumki, leksemaning ma’nosida borliqdagi voqea-hodisalarning inson ongidagi in’ikosi ifodalanadi, demak, ma’nolar tizimidagi butun-bo’lak munosabati negizida ham, aslida, borliqdagi butun-bo’lak munosabatlarini tilda ifodalash zarurati yotadi. Partonimiya hodisasini o’rganish lu’gat boyligi tizimining “sir”larini ochish, so’z ma’nolarini aniq va to’g’ri izohlash nuqtayi nazardan ahamiyatlidir. Bu hodisa H.Ne’matov, R.Rasulov, E.Qilichev, B.Qilichev kabi tilshunoslarning ishlarida ma’lum darajada o’z talqinini topgan. Partonimik munosabatdagi birliklar yuridik sohada, ayniqsa, advokat va guvohlarning nutqida kuzatiladi. Shuningdek, yuridik sohaga taalluqli bo’lgan terminlar o’rtasida ham partonimik munosabat uchratish mumkin.

Qiyoslaymiz:

**Kodeks** – boblar, band, qism, modda.

**Ish** – boblar, bandlar, qismlar.

**Sud tarkibi** – sud raisi, sud kotibi, xalq maslahatchilari, prokuror, sudlanuvchi, advokat, da’vogar, javobgar, jabrlanuvchi, tarjimon, guvohlar.

**Sud hujjatlari** –ajrim, qaror, hukm, tilxat, ayblov xulosasi, *hal qiluv qarori, kodeks, sud majlisi bayonnomasi, sanksiya, protest, ariza, tushuntirish xati, tilxat, shikoyat xati, avf, amnistiya akti, ishonchnoma, eslatma, buyruq, farmon, nizom, tavsiyanoma, xabarnoma, yo’riqnoma, ma’lumotnoma, tavsifnoma, dalolatnoma, ayblov fabulasi, ichki ishlar organi taqdimnomasi, sud majlisi bayoni, shikoyat xati, vasiyatnoma, akt, litsenziya, sanksiya, deklaratsiya, iltimosnoma, kassatsiya shikoyati, qonun hujjatlari* va b.

**Odam** ←bosh←bo’yin←elka←ko’krak←qo’l←oyoq←bo’g’im.

**Daraxt** ←shoxa←yaproq←ildiz.

Yuridik tilshunoslikda uchraydigan partonimik munosabatlarga misollar: *Aripjanov Olimjon Karimjonovich O‘Zr Jinoyat kodeksining 227-moddasi ikkinchi*



# "O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

*qismi "a" bandiga asosan yetti yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin. Tayinlangan jazo qattiq tartibli koloniyalarda o'tattirilsin (sud hukmidan). Toshkent shahar Shayxontohur tuman sudi 2000- yil oktyabr oyining 23-kuni o'z binosida ochiq sud majlisida raislik etuvchi sudya N.M. Mirzaolimov, xalq maslahatchilari A.Kenjaev, B.Jo'raevalar hay'atida, Z.To'laganovning kotibligida tomonlardan prokuror yordamchisi Yigitaliev, himoyachi Abdullaev, tarjimon Latipovalarning ishtirokida ... 1- 831/ 2000-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqib, sud aniqladi... (sud bayonnomasidan).*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, partonimiya barcha sohalarda bo'lgani kabi yuridik tilshunoslikda ham partonimik munosabatlar uchraydi. Bu ko'proq umumiste'mol leksika va terminlarda kuzatiladi. Partonimik munosabatdagi birliklardan sud jarayonida, asosan, jinoyatlarni ochishda, aniqlashda faol foydalaniladi. Bu birliklar, ayniqsa, advokat va guvohlarning nutqida ko'p uchraydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.
2. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Mo'ydinov Q. O'zbek tili sud nutqi leksikasi. Monografiya – Chirchiq: 2022.
4. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
5. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA'SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
6. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
7. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
8. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
10. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
11. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.